

ABDURAUUF FITRATNING “RAHBARI NAJOT” RISOLASIDA XALQ MA’RIFATI VA TARBIYA KONSEPSIYASI



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2026-22-324-328>

Musurmonova Sevinch Alisher qizi
TDSHU, Sharq sivilizatsiyasi va falsafa
fakulteti Falsafa yo‘nalishi
1-kurs Yapon-ingliz guruhi talabasi
sevinchmusurmonova584@gmail.com

Ilmiy rahbar: PhD, dotsent **Ikramova Iroda Rixsivayevna**

Annotatsiya. Ushbu maqolada Abdurauf Fitratning “Rahbari najot” asari asosida jamiyat taraqqiyotida tarbiyaning o‘rni tahlil qilinadi, muallif tomonidan ilgari surilgan fikrlar orqali ilmsizlik, jaholat va noto‘g‘ri tarbiyaning salbiy oqibatlari ochib beriladi. Shuningdek, ota-onalarning farzand tarbiyasidagi mas‘uliyati, yosh avlodni zamonaviy bilimlar asosida tarbiyalash zarurati asoslab beriladi. Maqolada Kaykovusning “Qobusnoma” asaridagi qarashlar hamda Imom Muslim rivoyat qilgan hadis mazmuni bilan uyg‘un holda tarbiya masalasining ahamiyati yoritiladi. Natijada, to‘g‘ri tarbiya jamiyat rivoji va inson kamolotining muhim omili ekanligi xulosalanadi.

Kalit so‘zlar: “Rahbari najot”, yoshlar tarbiyasi, jadidchilik, ota-ona mas‘uliyati, jamiyat taraqqiyoti, jaholat, ilmsizlik, ma‘naviyat, ilm, ma‘rifat.

XX asr boshlarida yurtimizda ma‘rifatparvarlik g‘oyalari kuchayib, jadidchilik deb atalgan yangi oqim shakllandi. Bu oqim xalqni jaholat, nodonlik va ilmsizlikdan qutqarishga qaratilgan harakat edi. Ushbu jadidchilik harakatining yirik namoyondalaridan biri - bu Abdurauf Fitrat. U o‘zining “Rahbari najot” (Najot yo‘li) nomli risolasida Turkiston elining baxtsizlik sabablari va ularga qarshi yechimlarini, yoshlar uchun kerakli maslahatlarni berib o‘tgan. Asarda Fitrat faqat xalqning baxtsizligi sabablarinigina emas, balki ularga bir qator yechimlar va yoshlar tarbiyasidagi eng muhim omillarni sanab o‘tgan. Qaysi ilmlar yoshlarni komil inson darajasiga yetkazishi mumkinligini e‘tirof etgan. Uning risolasidagi qarashlari nafaqat o‘z davrining balki biz hozirgi kun yoshlari uchun ham eng mukammal axloqiy yo‘l-yo‘riq manbasi bo‘lib xizmat qiladi.

“Abdurauf Fitrat (1886-1938) o‘zbek adabiyoti va ma‘rifatparvarlik tarixidagi eng muhim shaxslardan biri. U eski uslubdagi ta‘limga qarshi chiqib yangi zamonaviy bilimlarni targ‘ib qilgan. U 1886-yili Buxoroda ziyoli oilasida tug‘ilgan. Dastlabki ta‘limni Buxoro, Istanbul madrasalari va dorilfununlarida oladi. Keyinchalik Istanbulga borib, u yerda yuqori ma‘lumot olgan va turk madaniyatini, adabiyotini o‘rgangan. Turkiyada tashkil topgan “Buxoro ta‘limi maorifi” uyushmasida faollik ko‘rsatadi. Uning ilk to‘plami “Sayha” (“Chorlov”) nomi bilan 1911-yilda chop etildi. “Sayyohi hindiy”, “Munozara” kabi asarlari ham shu yillarda Turkiyada nashr etildi. 1909-1913-yillarda Turkiya dorilfununida o‘qiyotganida jadidchilik g‘oyalari bilan

tanishib shu g‘oyalar bilan sug‘orilgan asarlar yozdi. U Turkiyadagi tahsili davrida o‘ziga Fitrat (dono, zukko) deb taxallus oldi. 1920-yillarda O‘zbekistonga qaytib, milliy yo‘nalish, mustaqillik va ijtimoiy adolat g‘oyalarini keng targ‘ib qilgan. U O‘zbek xalqini yangicha tafakkur va ma‘naviy yuksalishga chorlagan. Fitratning mashhur asarlaridan “Rahbari najot”, “Oila”, “Qiyomat” ozodlik ruhi, milliylik va madaniyat kabi masalalarni ifodalagan. U zullisonayn adib sifatida juda ko‘p asarlarni yozdi va o‘zbek adabiyotini boyitdi. Fitratning o‘zbek tili grammatikasiga oid darsliklari 1925-1930-yillarda 5 marotaba chop etilgan. Tilshunoslik va adabiyotshunoslik bo‘yicha olib borgan tadqiqotlari uchun Fitratga o‘zbek olimlari orasida birinchi bo‘lib professor unvoni berildi. Afsuski, Fitrat 1938-yili 4-oktabr kuni o‘z zamondoshlari: Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon singari o‘zbek jadidlari bilan birgalikda nohaq ayblanib, o‘lim jazosiga hukm etilgan. Mustaqillik yillarida uning merosi qayta tiklanib unga “Alisher Navoiy” nomidagi Respublika Davlat mukofoti berildi. Bugungi kunda uning merosi milliy o‘zlikni anglash yo‘lida muhim axloqiy manba sifatida ulug‘lanmoqda.”¹

“Rahbari najot” 1915-yilda yozilgan bo‘lib, bu davrda Turkistonda og‘ir vaziyat hukm surmoqda edi. Birinchi Jahon urushi, iqtisodiy muammolar, Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosati xalqni har tomonlama ahvolini og‘irlashtirgan edi. Fitrat aynan shunday og‘ir vaziyatda xalqni uyg‘otish va ularni yangi yo‘lga boshlashni maqsad qilgan. Risola o‘zbek tilida yozilgan bo‘lib, oddiy xalqqa tushunarli sodda va ravon usulda taqdim etilgan. Asarda insonning o‘z taqdirini o‘zi belgilashi, jaholatdan qutilishi, axloqiy jihatdan yuksalishi va yoshlarni ilmi, ma‘rifatli qilib tarbiyalash kabi asosiy g‘oyalar ko‘ndalang qo‘yilgan. U ilmsizlik, baxtsizlik va jaholatga qarshi choralarni, buning sabablarini 2 toifa insonlar misolida tushuntirib beradi. Yoshlarning ilmsizlik kuchayib borgan sari saviyasini pastlab borayotganini ta‘kidlab, bunday holat jamiyat taraqqiyotiga katta to‘siq bo‘lishini uqtiradi. Fitrat asar muqaddimasida shunday deydi: “...Ma‘lumkim bizning otabobolarimiz har bobda, ayniqsa, ilm va ma‘rifatda olam ahli uchun ibrat va namuna bo‘lganlar. Borib-borib zamon o‘zgardi, sa‘y-u harakatlar, ilmga bo‘lgan intilishlar susayib, talqinchilikka aylandi “Ijod qilmoq” (degan tushuncha zararli va aloqasiz mazmunlar chor devorida qolib ketdi. Mamlakatimizda bunday tushkunlik davr uzoq muddat davom etdi... Ushbu axloqiya majmuasini tartib berib, “Rahbari najot” (“Najot yo‘li”) deb nomladim.”² Bundan tashqari, u asarda baxtsizlikni shaxsiy va ijtimoiy omillar bilan bog‘laydi va har bir toifaning o‘ziga xos xususiyatlarini misollar bilan ochib beradi. Masalan, Fitrat risolasida o‘zbek jamiyatidagi ta‘limning sustligi tanqid qilinib bolalarni zamonaviy bilimlardan mahrum qilishni asosiy sabablardan biri deb hisoblaydi.

U ota-onalarga murojat qilib, farzandlarini maktabga berishni va zamonaviy bilimlar olishiga qarshi chiqmasliklariga da‘vat etadi. Risolaning o‘zida Fitrat o‘z hayotidan, o‘zi boshidan kechirgan bir voqeani keltirib o‘tadi: “Bola edim, bir kuni maktabdan uyga qaytib kelayotsam ko‘chada bir erkak devonalarga o‘xshab, og‘zidan

¹ “Abdurauf Fitrat” //Wikipedia, https://uz.wikipedia.org/wiki/Abdurauf_Fitrat

² Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. 5-жилд. Раҳбари најот. – Тошкент, 2010. – Б. 62.

ko‘pigi kelib, aft-basharasiga qon sapchib, yurishga madori kelmay turibdi. Raisning ikkita mulozimi kelib, uni qo‘ltig‘idan ushlab, sudrab olib ketishdi, orqasidan bir to‘da odam ergashib ketdi. Bu odamga nima qilgan deb so‘rasam, u sharob ichib mast bo‘lgan, uni muhtasibga jazosini berish uchun olib ketishyapti, deb javob berishdi. Uyga kelib shu voqeani dadamga aytib beruvdim, dadam “Nega sen mastning ortidan ergashib yuribsan”- deb uzun kaltak bilan tazirimni berdi. Shundan bir hafta o‘tgach, maktabdan keldim, dadam “Kel-chi, maktabdan domlangdan o‘rganganingni o‘qib ber” - deb so‘rab qoldi. Kitobdan varaqlab o‘sha kuni o‘tgan g‘azalimizni ochib o‘qib berdim:

Gul be ruxi yor xush naboshad,
 Be boda bahor xush naboshad.
 (Gul yorning jamolisiz xush bo‘lmas,
 Bahor esa bodasiz xush bo‘lmas.)

Bu safar dadam meni maqtadilar. Hanuzgacha hayratlanamanki, men o‘qigan dars dadamga aytib bergan voqeadan ming marta battar edi-ku. Zero, bu g‘azal nafaqat sharobxo‘rlikdan saboq edi, balki, unda oshiq va ma‘shuqlikka da‘vat bor edi. Bas, dadamning men aytib bergan voqeadan ranjib, o‘qib bergan she‘rimdan xursand bo‘lishining sababi nima edi?

Mana, maktablarimizning ahvoli, bolalarimizga beradigan tarbiyamiz yana biz ularning solih bo‘lishlarini xohlaymiz. Hayhot!”³

Fitrat bu bilan hikoyasida, o‘z davridagi jamiyatning eng og‘riqli muammolaridan birini – tarbiya va ta‘limdagi beparvolikni ochib bermoqchi bo‘ladi. U ,avvalo, xalqning dastlab ilm va ma‘rifatda yetakchi bo‘lganini eslatib, keyinchalik bu yo‘ldan chekinib, jaholatga yuz tutganini achinish bilan ta‘kidlaydi. Ayniqsa, ilmga bo‘lgan haqiqiy intilishning yo‘qolib, uning o‘rnini faqat tashqi, mazmunsiz “taqlid” egallaganini tanqid qiladi. Fitrat keltirgan voqea esa oddiy bir misol emas, balki juda chuqur ma’noga ega. U orqali muallif ota-onalar va jamiyatning tarbiyaga bo‘lgan noto‘g‘ri qarashlarini ochib beradi. Ya’ni, otaning mast odam ortidan yurgani uchun bolasini jazolashi tashqi yomonlikka qarshi munosabatdir. Ammo o‘sha ota bolasi o‘qigan, aslida ichkilikbozlik va muhabbatni targ‘ib qiluvchi she‘rni maqtaydi. Fitrat bu voqea bilan tanqid qilgan asosiy g‘oya bu - jamiyat yomonlikni faqat ko‘zga ko‘rinadigan shaklda ko‘rsa qoralaydi, lekin o‘sha yomonlik yashirin yoki adabiy ko‘rinishda bo‘lsa, uni anglamay qabul qilishi haqida.

Kaykovus ham o‘zining “Qobusnoma” asaridagi fikrlari bilan Fitratning g‘oyalariga hamohangdir: “Farzand uchun eng katta meros – yaxshi tarbiyadir”⁴. Bu so‘zlar oddiy nasihat emas, balki har bir ota-ona uchun hayotiy qonun darajasidagi haqiqatdir. Chunki inson bolaga qancha boylik, mol-dunyo yoki qulaylik yaratib bermasin, agar u to‘g‘ri tarbiya olmasa, bu boyliklar uning hayotiga ijobiy natija bermaydi. Aksincha, yaxshi tarbiya olgan farzand eng oddiy sharoitda ham o‘z yo‘lini topa oladi, jamiyatda o‘z o‘rnini egallaydi va boshqalarga foyda keltiradi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, tarbiya bu faqat odob o‘rgatish emas, balki bolaga to‘g‘ri fikrlash,

³ Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. 5-жилд. Раҳбари нажот. – Тошкент, 2010. – Б. 199.

⁴ Kaykovus. Qobusnoma. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2011. – B. 44.

yaxshini yomondan ajrata olish, ilmga intilish va hayotda mustaqil qaror qabul qilishni o‘rgatishdir. Aynan shu jihatlar Abdurauf Fitrat tomonidan ham alohida ta’kidlanadi. U ota-onalarning farzand tarbiyasiga befarqligini tanqid qilib, yoshlarni ilm va ma’rifat asosida tarbiyalash zarurligini uqtiradi. Bugungi kunda ham bu fikrlar o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan. Zamonaviy jamiyatda ko‘plab ota-onalar farzandiga yaxshi sharoit yaratishga harakat qiladi, ammo ba’zan uning ichki dunyosi, axloqi va bilimiga yetarlicha e’tibor bermaydi. Natijada esa tashqi tomondan mukammal ko‘ringan, lekin ichki jihatdan zaif shaxslar shakllanishi mumkin. Shuning uchun ham Kaykovus va Fitratning bu qarashlari biz uchun muhim saboqdir.

Imom Muslim “Kitobul vasiyat” da keltirgan hadisda inson vafot etganidan keyin ham unga savob yetib turadigan amallardan biri sifatida solih farzandning duosi ekanligi alohida ta’kidlanadi. Bu esa tarbiyaning naqadar muhim ekanini ko‘rsatadi. Chunki solih, odobli va yaxshi axloqli farzand faqat to‘g‘ri tarbiya orqali voyaga yetadi. Bu fikrlar ham yoshlar tarbiyasining inson hayotida muhim ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi.

Fitrat “Rahbari najot” risolasida yangi o‘qitish tizimiga mutassib din tarafdorlarining qarshiliklarini keltirib o‘tadi va o‘zining “Sayyohi hindiy” risolasi nashr bo‘lgandan so‘ng yuz bergan voqea haqida shunday deydi: “Menga bir necha buxorolik mullavachchalardan e’tiroz xatlari keldi. Xatlarda meni yangi o‘qitish tizimi haqidagi ilmlarimni qoralab, ahli ilm ulamolarini o‘zimga dushman qilayotganim haqida yozilgan edi. Men ularga javoban o‘zim ham oddiy tolibi ilm ekanligimni va zamonaviy bilimlarni ham diniy ilmlar bilan teng o‘qitilish tarafdori ekanimni bayon etdim va misol tariqasida “Biz Turkistonliklar 20 yil muddatda mashaqqat va mehnat asosida ta’lim olamiz, u tahsilimiz arab tilida joriy qilinib o‘tgangan barcha ilmimiz diniydir. Shunday ekan nega fiqhga doir bir masalani fiqh ilmini qo‘llab yechadigan bir olim oramizdan chiqmaydi? Nega aqalli yuz kishini yig‘ib hadisi sharifdan dars beradigan fozilimiz yo‘q? Nega ovro‘palik olimlarning botil aqidalarini rad qilib isbotlaydigan bir dona notiqdan asar ham yo‘q?”⁵ Nega? deb o‘sha davr Turkiston ahlining qanchalik tanazzulda ekanligini o‘z javobi bilan ko‘rsatib beradi. Bundan tashqari, Turkistonda ilm-fanga bo‘lgan layoqatsizlikni Fitrat o‘z risolasida yana bir yaqqol misol bilan keltirib bergan: “Avvalo mamlakatimizda ilm-fan uchun sarmoya tikadigan boylar soni kam. Ha, to‘rt-besh nafar boy bo‘lib ular davlat va pulga egalari, va biz g‘aflat bosganlar nazarida ko‘p bo‘lib ko‘rinadilar, ammo Ovro‘pa va Rossiya boylari nazarida barchasining davlatlarini jamlasa ham bir bosh og‘rig‘iga sarf bo‘lolmaydi shoyad “Oyina majallasining to‘rtinchi sonida o‘qigan bo‘lsangiz Amerikadagi shaharlarning birida bir shirkat o‘zining imorati uchun 25 million so‘m ajratgan. Bizning mamlakatimizda nechta tojir bo‘lsa ham ularning sarmoyalari jamlanmasi 10 millionga ham yetmaydi. Shuning uchun biz aytishga majburmizki, mamlakatimizda zamona xohishiga muvofiq davlatli bo‘lgan kishi yo‘q. lekin shu ikki-uch nafar biz boy deyayotganlarimizning bizdan ko‘ra ko‘proq dabdabalari bor. Ularning hech birini dunyo saodatiga yetgan deb aytib bo‘lmaydi. Negakim, ular yilda bir marta borgan yarmarkalariga salla-cho‘pon o‘rniga kamzul va shlyapa kiyib

⁵ Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. 5-жилд. Раҳбари најот. – Тошкент, 2010. – Б.116-117.

boradilar. Bizningcha, siz gumon qilayotgan bo‘lsangiz kerak ular havas qilganliklari uchun ovro‘pacha kiyinadilar, ammo buning asl mohiyati shuki, majburlikdan libos almashtiradilar. Agar Buxoro libosida safar qilsalar boshqa millatlar ularning ustidan masxara qilishadi, odam o‘rnida ko‘rishmaydi. Sabab? Chunki jahon xalqlari orasida turkistonliklarning e‘tibori yo‘qligini ko‘rsatadi. Biz bu jahon xalqlari orasidagi e‘tirofga ilmimiz, rivojlanishimiz orqaligina erisha olamiz. Bu saodatga dunyo go‘shasida nafaqat shaxsi balki nomi e‘tibotli va sharafli bo‘lgan kishilargina muyassardir. Bizning millatimiz jahon xalqlari orasida hurmat va e‘tiborga sazovor bo‘lsalargina baxtga erishishlari mumkin.”⁶ Fitrat bu risolasi bilan Turkiston elining boylari faqat o‘z dabdabalarini o‘ylab, xalqning ma‘naviy-madaniy rivojiga xizmat ko‘rsatmaganliklarini ta‘kidlagan. Bu esa millatni rivojlanishiga to‘sqinlik qilgan.

Zero, “Al-jome as-sag‘ir” asarida “Yaxshi ko‘rgan narsalaringizni bir qismini boshqalar uchun sarf qilmas ekansiz, ikki dunyo saodatiga erishmaysiz bir-birlaringizning muovanatin yo‘lida sarflangan har bir narsani Xudo biladi (ya‘ni mukofotini beradi)”⁷. Bu fikr aslida insonning haqiqiy qadri nimada ekanini ochib beradi. Ya‘ni, inson faqat o‘zi uchun yashasa, uning hayoti to‘liq va mazmunli bo‘la olmaydi. Aksincha, u o‘zi yaxshi ko‘rgan narsalaridan boshqalar uchun ham ajrata olsa, bu uning qalbida saxovat va insonparvarlik borligini ko‘rsatadi. Shu jihatdan qaraganda, yaxshilik qilish va boshqalarga yordam berish insonni ma‘nan yuksaltiradi. Eng muhimi, bu amallar befoyda ketmaydi – ular albatta qadrlanadi va o‘z egasiga yaxshilik bo‘lib qaytadi.

Xulosa qilib aytganda, Abdurauf Fitratning «Rahbari najot» asarida ilgari surilgan g‘oyalar asosida shuni anglash mumkinki, jamiyat taraqqiyoti va inson kamoloti, avvalo, ilm va to‘g‘ri tarbiyaga bog‘liqdir. Jaholat, ilmsizlik va beparvolik esa bu jarayonning eng katta to‘siqlaridan biridir. Shu bois har bir inson, ayniqsa, ota-onalar, yosh avlodni ongli, bilimli va axloqli qilib tarbiyalashga mas‘ul bo‘lib, aynan mana shu omil jamiyatning kelajagini belgilovchi eng muhim asos hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. 5-жилд. Раҳбари најот. – Тошкент, 2010.
2. Kaykovus. “Qobusnoma”. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2011.
3. Imom Muslim. “Sahih Muslim”– Hadislar to‘plami.
4. Jaloliddin as-Suyutiy. Al-jome as-sag‘ir. Qohira: Dar al-Kutub al-Ilmiyya.

⁶ Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. 5-жилд. Раҳбари најот. – Тошкент, 2010. – Б. 126.

⁷ Jaloliddin as-Suyutiy. Al-jome as-sag‘ir. Qohira: Dar al-Kutub al-Ilmiyya. Hadis 1233